**Qurilish obyekti ustidan nazorat**
**vazifalarini amalga oshirish uchun**
**OFERTA** 577

Toshkent sh. "30" iyun 2025 yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar, **Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi**, bundan buyon matnda "Ijrochi" deb nomlanadi, uning nomidan inspektsiya boshlig'i **Q.S.Praliyev** Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi, birinchi tomondan, "O`zshahar qurilish invest" IK MCHJ, bundan buyon matnda "buyurtmachi" deb nomlanadi, uning nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi B.M.Saatov ikkinchi tomondan, quyidagilar bo'yicha mazkur ofertani tuzdilar:

## OFERTA PREDMETI

Mazkur oferta O'zbekiston Respublikasining "fuqarolik kodeksi" va 29.08.1998 yildagi "xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnoma-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi 200-sonli, 20.08.2020 yildagi 496-sonli, 22.09.2025 yildagi 602-sonli, qarorlariga asosan tuzilgan va qurilish-montaj ishlari sifati ustidan nazoratni amalga oshirish shartlari va tartibini belgilab beradi

## 1. IJROCHINING MAJBURIYATLARI

1.1. **Toshkent shahar, Yangi Toshkent shahri hududida (Istiqbol MFY, Xiyobon ko'chasi, 40-uy) turar joy binolari majmuasi qurilishi (5B-lot)** obyekti bo'yicha qurilish-montaj ishlarining sifati ustidan tanlab nazoratni amalga oshiradi.

1.2. Oferta qabul qilingan kundan boshlab qurilish obyekti bo'yicha bajariladigan ishlar zilzilabardoshlik, loyiha hujjatlari, SHNQ, QMQ va QMvaQ talablariga mos kelishi yuzasidan tanlab nazoratni amalga oshirishga kirishadi. Ijro etilishi mujburiy bo'lgan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha yozma ko'rsatmalar beradi. Zarur bo'lganida ishlarni past sifatda bajarilayotgan obyekt qurilishini to'xtatib qo'yadi, belgilangan tartibda choralar ko'radi, obyektni foydalanishga qabul qilish bo'yicha ishchi va davlat komissiyasida ishtirok etadi.

## 2. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

2.1.O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga, shaharsozlik faoliyati sohasidagi texnik jihatdan tartibga solishning normativ hujjatlari talablariga, tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq qurilish-montaj ishlarini bajarilishining sifati va to'liqligi yuzasidan nazoratning amalga oshirganligi uchun "Buyurtmachi" ajratmalar (to'lov) amalga oshiradi. Ajratmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining belgilangan tartibida amalga oshiriladi. "Ijrochiga" qurilish obyektiga to'siqlarsiz kirish, ushbu obyektning loyiha va boshqa hujjatlarigdan foydalanish imkonini ta'minlaydi.

2.2. Inspektsiyaning nazorat ishlarida qurilish-montaj ishlari va qo'llanilayotgan qurilish materiallari, konstruktsiyalar va buyumlarning sifati bo'yicha paydo bo'ladigan savollarni hal etish uchun mas'ul vakillar - qurilish ishtirokchilari va buyurtmachilarni ta'minlaydi.

2.3. "Buyurtmachi" ofertaning barcha shartlariga o'z vaqtida rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, shuningdek bajarilgan loyihaviy yechimlarga muvofiq bajarilgan qurilish-montaj ishlari sifati uchun to'liq javobgar bo'ladi va o'z vaqtida haq to''lanishini kafolatlaydi.

2.4. Xabarnomada berilgan shartlar o'zgartirilgan taqdirda, ish bajaruvchi, obyektdagi texnik nazoratni olib boruvchi shaxs almashtirilganda, lisenziyaning amal qilish muddati tugaganda, loyihaviy yechimlarning sezilarli darajada o'zgarishi va h.k.lar, "Buyurtmachi" 10 kun ichida "Ijrochi"ga tegishli o'zgartirishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilishi kerak.

2.5. Oferta asosida "Ijrochi" tomonidan bajarilgan nazorat ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan qurilish –montaj ishlari qiymatidan (qo'shimcha qiymat solig'isiz) kelib chiqqan holda, obyektlar murakkabligi toifasining tasnifiga muvofiq - **0.2%** miqdorida haq to'laydi, bu quyidagi miqdorni tashkil qiladi:

***366 045 006 (Uch yuz oltmish olti million qirq besh ming olti) so'm***

(summa harf bilan)

2.6. "Buyurtmachi" mazkur oferta imzolangandan so'ng 30 kun ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi 200-sonli qarorining 5-ilova, 20-bandiga asosan ijrochiga 2.5.bandida ko'rsatilgan summani **100 %** to'lashi shart.

2.7. Smeta qiymati indeksatsiyalanishi munosabati bilan "Buyurtmachi" qo'shimcha ravishda qurilish-montaj obyektlarining amaldagi to'lovlari va hisobot ma'lumotlari o'rtasidagi farqni to'laydi.

## 3. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

3.1. Mazkur ofertaning 2.5 va 2.6 bandlarida ko'rsatilgan to'lovlarni to'lash muddatlarini buzganlik uchun "Buyurtmachi" "ijrochiga" har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan summaning 0,4% miqdorida hisobidan, lekin muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50% oshmagan miqdorda penya to'laydi. "Buyurtmachi" tomonidan nazorat ishlari uchun haq to'lanilishi ta'minlanmaganda, keyinchalik "Ijrochi" tomonidan qonunda o'rnatilgan tartibda ofertani bekor qilish bo'yicha ofertani chaqirib olish ishlari amalga oshiriladi va nazorat ishlari ko'rsatilishi to'xtatiladi.

3.2. Tomonlarning mazkur ofertada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O‘zbekiston Respublikasi hududida amaldagi qonun hujjatlari me’yorlariga muvofiq qo‘llaniladi.

## 4. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

4.1. Taraflar oferta bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarinigng talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, vada bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to‘lamaydi, bevosita va bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, inspeksiya xodimi o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

4.2 Agar oferta bo‘yicha bir taraf inspektsiya xodimining axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu oferta yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi inspektsiya ishonch telefoni orqali xabardor berishi kerak "(71)233-28-43".

## 5.FORS-MAJOR

5.1. Fors-major holatlari paydo bo'lganida va ular o‘rnatilgan tartibda to‘g‘ri rasmiylashtirilganda tomonlar mazkur oferta bo‘yicha javobgarlikdan ozod etiladilar.

5.2. Yengib bo‘lmas kuch holatlari rasmiy ravishda bartaraf etilganidan so‘ng, tomonlar oferta bo‘yicha munosabatlarini qayta tiklaydilar.

## 6. UMUMIY QOIDALAR

6.1. Mazkur oferta ijro etish, o‘zgartirish va bekor qilishda hamda ziyonlarni qoplab berish yuzasidan tomonlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan kelishmovchiliklar qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqiladi. Muzokaralar yo‘li bilan nizolar hal etilmaganda "Ijrochi" da’vo keltirish tartibida iqtisodiy, hakamlik va boshqa sudlarga "buyurtmachiga" xabar bergandan so‘ng, murojaat qilishi mumkin.

6.2. Yuridik manzil, bank rekvizitlari o'zgarganda va boshqa o‘zgarishlarda tomonlar bu haqda bir birlarini 10 kun ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

6.3. Mazkur oferta bir xil yuridik kuchga ega 2 ta nusxada tuzilgan.

6.4. Ofertaning amal qilish muddati qurilish ishlari yakunlanguniga qadar kuchga ega bo‘ladi.

Mazkur oferta 2026 - yil 31 dekabr kuniga qadar amal qiladi.

| **“Buyurtmachi”** | **“Ijrochi”** |
|---|---|
| **Tashkilot nomi** | **Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi** |
| 100084 Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 4a uy. | 100047 Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Shaxrisabz ko'chasi, 85 uy. |
| tel. (71) 236-48-83 | tel. (71) 233-28-81 |
| x/r 2020 8000 3007 1277 6001 | H/r 23402000300100001010 |
| ATIB Ipoteka bank Shayhontohur filiali<br>MFO 00425, STIR 304 573 795, IFUD (OKED) 41201 | STIR 201122919 Iqtisodiyot va Moliya vazirligining Yagona g'azna xisobvaraq'i<br>MFO 00014 STIR 200898340 OKED 71110<br>Q/H/R 4600108602629070443030840001<br>Qo‘shimcha hisob raqamlari 1 varaqda ilova qilinadi |

## TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

**Tashkilot nomi**

**Rahbar** ____________ **B.M.Saatov**

**Yuridik bo‘limi boshlig‘i:** ____________

**Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi**

**Boshlig‘i** ____________ **Q.S.Praliyev**

**Yuridik bo‘limi boshlig‘i:** ____________ **U.B.Xalilov**

**Ijrochi** ____________ **E.Xayaliyev**

**Sho‘ba boshlig‘i-bosh hisobchi**

____________ **X.Salimov**

3. Жураев

**Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasining shaharsozlik sohasida ko‘rsatadigan nazorat xizmatlari uchun tulov qilishga qo‘shimcha hisob raqamlari**

**Ilova-1**

| № | Hisob raqami | Тумani nomi |
|---|---|---|
| 1 | 40142286012628734510140884 | Yakkasaroy |
| 2 | 40142286022626634510140884 | Yunusobod |
| 3 | 40142286032626934510140884 | Mirzo-Ulugbek |
| 4 | 40142286032629434510140884 | Chilonzor |
| 5 | 40142286042627334510140884 | Mirobod |
| 6 | 40142286052626434510140884 | Bektemir |
| 7 | 40142286062628034510140884 | Olmazor |
| 8 | 40142286062629234510140884 | Yangixayot |
| 9 | 40142286072628334510140884 | Sergeli |
| 10 | 40142286082626234510140884 | Uchtepa |
| 11 | 40142286092627734510140884 | Shayxantoxur |
| 12 | 40142286092629034510140884 | Yashnobod |

**Қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун объектни рўйхатдан ўтказиш бўйича давлат хизматларидан фойдаланиш учун**

**СЎРОВНОМА**

| | |
|---|---|
| **I. Ариза берувчи — юридик шахс тўғрисида маълумот** | |
| 1. Тўлиқ номи | “Ўзшаҳар қурилиш инвест” ИК МЧЖ |
| 2. СТИР | 304573 |
| 3. Телефон рақами | 97 766 00 89 |
| 4. Ташкилотнинг юридик манзили;<br>Электрон почта манзили (мавжуд бўлса) | 100084, Тошкент шаҳри, Миробод тумани, Амир Темур шох кўчаси, 4-уй<br>qurilishinvest1@exat.uz |
| 5. Қайта расмийлаштириш (ариза юборилган вақтдаги шартлар ўзгарган тақдирда) | |
| **II. Муаллифлик назоратини олиб борувчи лойиҳа ташкилоти тўғрисида маълумот** | |
| 1. Тўлиқ номи | "UNIVER PRO STILE" MCHJ |
| 2. СТИР | 204756862 |
| 3. Телефон рақами | 91 703 32 06 |
| 4. Электрон почта манзили (мавжуд бўлса) | |
| **III. Пудрат ташкилоти тўғрисида маълумот** | |
| 1. Тўлиқ номи | "ЗАМОНАВИЙ ТОШКЕНТ" МЧЖ |
| 2. СТИР | 305 386 315 |
| 3. Телефон рақами | 91 372 28 72 |
| 4. Электрон почта манзили (мавжуд бўлса) | |
| **III. Пудрат ташкилоти тўғрисида маълумот** | |
| 1. Тўлиқ номи | "NEW TIMES BUILDINGS" МЧЖ |
| 2. СТИР | 305 238 901 |
| 3. Телефон рақами | 97 448 19 88 |
| 4. Электрон почта манзили (мавжуд бўлса) | |
| **IV. Кўчмас мулк тўғрисида маълумот** | |
| 1. Объект номи | Янги Тошкент шаҳрида кўп қаватли турар жой бинолари қурилиши (5Б-лот) |
| 2. Кўчмас мулкнинг кадастр рақами | 11:14:41:01:02:0174 |
| 3. Кўчмас мулк (объект)нинг манзили | Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, Istiqbol MFY, Xiyobon ko'chasi, 40-uy |
| 4. Қурилиш-монтаж ишларининг тури (янги қурилиш/қайта расмийлаштириш) | Янги қурилиш |
| 5. Қурилиш-монтаж ишларининг қиймати (ҚҚСсиз, буюртмачининг бошқа харажатлари ва жиҳозларисиз) | 183 022 503 074 сўм |
| 6. Қурилиш бош бошқармасининг хулосаси (Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи органи хулосаси) рақами ва санаси | 2025-07-25 даги<br>202616201 -сонли |
| 7. Экспертиза ташкилотининг номи, ижобий хулосасининг рақами ва санаси | 20.08.2025 йил<br>255534-сонли |
| 8. Пудрат ташкилоти лицензиясининг рақами ва санаси (лицензияланадиган алоҳида қурилиш-монтаж ишлари турларини бажарищда) | йўқ |
| 9. Экспертиза органларининг лойиҳа ҳужжатларининг саноат хавфсизлиги тўғрисидаги ижобий хулосасининг рақами ва санаси (хавфли ишлаб чиқариш объектлари учун) | йўқ |

TOSHKENT SHAHAR QURILISH SOHASIDA
HUDUDIY NAZORAT INSPEKSIYASI
KIRISH № 577
2025 yil «30 06»

| | |
|---|---|
| 10. Кўчмас мулкнинг тоифаси<br>(нотурар объект / турар-жой объекти;<br>мураккаблик тоифаси II, III, IV) | Тоифа- III |
| 11. Параллел лойиҳалаш объектлари учун<br>(Ҳукумат қарори, баённомаси сони ва санаси) | Янги Тошкент шахрини барпо этиш ишларини мувофиқлаштирувчи кенгаш йиғилишининг<br>07.03.2025й даги № 22-4 сонли баёнига асосан |
| 12. Давлат дастури объектлари бўйича (Ҳукумат қарори, баённомаси сони ва санаси) | 20.06.2023й<br>ПК-232 |

**V. Қурилиш-монтаж ишларига масъул бўлган ходимлар тўғрисида маълумот**

| Қурилиш объектидаги масъул шахснинг лавозими | ЖШШР | Масъул шахснинг Ф.И.О. | Телефон рақами | Сертификат рақами |
|---|---|---|---|---|
| Муаллифлик назорати | 31912943990028 | Кахаров Мухаммаджон Мехрож ўғли | +998 91 703 32 06 | № 000912 |
| Техник назоратчи | 30908900480041 | Йўлдошев Бахриддин Бектемирович | +998 97 444 65 22 | № 001522 |
| Пудрат ташкилотининг ички назорати | 31109720190038<br>"NEW TIMES BUILDINGS" МЧЖ | Сапаров Эргашбой Бекдурдиевич | +998 99 401 62 42 | № 0000003932 |
| Пудрат ташкилотининг ички назорати | 31510966140011<br>"ЗАМОНАВИЙ ТОШКЕНТ" МЧЖ | Синаров Акрам Муродулла ўғли | +998 77 000 46 73 | №0000007052 |

**VII. Илова қилинадиган ҳужжатлар**
*(якка тартибдаги уй-жойлар учун татбиқ этилмайди)*

| | |
|---|---|
| 1. | Қурилиш-монтаж ишлари сифатини назорат қилиш пудрат ташкилотининг қурилиш лабораторияси мавжудлигини тасдиқловчи ёки шартнома асосида лаборатория жалб этилганлиги тўғрисидаги ҳужжати |
| 2. | Буюртмачининг техник назорати, лойиҳа ташкилотининг муаллифлик назорати ва пудрат ташкилотининг ички назорати тайинланганлиги тўғрисидаги буйруқ ёки шартнома нусхалари |
| 3. | Буюртмачининг техник назорати, лойиҳа ташкилотининг муаллифлик назорати ва пудрат ташкилотининг ички назорат мутахассисларининг сертификатлари |
| 4. | Қурилишни ташкил этиш ва ишларни бажаришнинг тасдиқланган лойиҳалари. |

"Ўзшаҳар қурилиш инвест"
ИК МЧЖ директори: Б.М.Саатов

"Ўзшаҳар қурилиш инвест" ИК МЧЖ тақдим этган барча маълумотларнинг тўғрилигини тасдиқлайман ва оммавий оферта шартномасини қабул қиламан.

Ижрочи: З.О.Ўроқов